



**ҚАЗАҚСТАН ХАЛҚЫ АССАМБЛЕЯСЫ
ҚР ӨЗБЕК ЭТНО-МӘДЕНИ БІРЛЕСТІКТЕРІ “ДУСТЛИК” ҚАУЫМДАСТЫҒЫ
ЖҰМАБЕК АХМЕТҰЛЫ ТӘШЕНЕВ АТЫНДАҒЫ УНИВЕРСИТЕТИ
ӨЗБЕКСТАН МЕМЛЕКЕТТІК ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСЫ
А. НАВОИЙ АТЫНДАҒЫ ТАШКЕНТ МЕМЛЕКЕТТІК ӨЗБЕК ТІЛІ МЕН ӘДЕБИЕТІ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ҚОЗОҒИСТОН ХАЛҚИ АССАМБЛЕЯСИ
ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ЭТНОМАДАНИЙ БИРЛАШМАЛАРИ “ДЎСТЛИК” ҲАМЖАМИЯТИ
ЖУМАБЕК АХМЕТЎҒЛИ ТАШЕНЕВ НОМЛИ УНИВЕРСИТЕТИ
ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСИ
А. НАВОИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ
УНИВЕРСИТЕТИ**

**KAZAKHSTAN PEOPLE'S ASSEMBLY
SOCIETY OF ETHNO-CULTURAL ASSOCIATIONS OF UZBEKS OF KAZAKHSTAN "DOSTLIC"
ZHUMABEK AHMETULI TASHENEV UNIVERSITY
UZBEKISTAN STATE ACADEMY OF CHOREOGRAPHY
A. TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEKI LANGUAGE AND LITERATURE NAMED NAVOI**

**«ҒЫЛЫМ-БІЛІМ-ӨНЕР ИНТЕГРАЦИЯСЫ:
ПЕРСПЕКТИВАЛЫҚ ЖОБАЛАР»**

ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ-ТЕОРИЯЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛДАРЫ

**“ИЛМ-ФАН, ТАЪЛИМ ВА САНЪАТ ИНТЕГРАЦИЯСИ:
ИСТИҚБОЛЛИ РЕЖАЛАР”**

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**“INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND ARTS:
PERSPECTIVE PLANS”**

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONFERENCE

ШЫМКЕНТ, 18.11.2023



**ҚАЗАҚСТАН ХАЛҚЫ АССАМБЛЕЯСЫ
ҚР ӨЗБЕК ЭТНО-МӘДЕНИ БІРЛЕСТІКТЕРІ “ДУСТЛИК” ҚАУЫМДАСТЫҒЫ
ЖҰМАБЕК АХМЕТҰЛЫ ТӘШЕНЕВ АТЫНДАҒЫ УНИВЕРСИТЕТІ
ӨЗБЕКСТАН МЕМЛЕКЕТТІК ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСЫ
А. НАВОИЙ АТЫНДАҒЫ ТАШКЕНТ МЕМЛЕКЕТТІК ӨЗБЕК ТІЛІ МЕН ӘДЕБИЕТІ
УНИВЕРСИТЕТІ**

**ҚОЗОҒИСТОН ХАЛҚИ АССАМБЛЕЯСИ
ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ЭТНОМАДАНИЙ БИРЛАШМАЛАРИ “ДЎСТЛИК” ҲАМЖАМИЯТИ
ЖУМАБЕК АХМЕТЎҒЛИ ТАШЕНЕВ НОМЛИ УНИВЕРСИТЕТИ
ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСИ
А. НАВОИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ
УНИВЕРСИТЕТИ**

**KAZAKHSTAN PEOPLE'S ASSEMBLY
SOCIETY OF ETHNO-CULTURAL ASSOCIATIONS OF UZBEKS OF KAZAKHSTAN "DOSTLIC"
ZHUMABEK AHMETULI TASHENEV UNIVERSITY
UZBEKISTAN STATE ACADEMY OF CHOREOGRAPHY
A. TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEKI LANGUAGE AND LITERATURE NAMED NAVOI**

**«ҒЫЛЫМ-БІЛІМ-ӨНЕР ИНТЕГРАЦИЯСЫ:
ПЕРСПЕКТИВАЛЫҚ ЖОБАЛАР»**

ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ-ТЕОРИЯЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛДАРЫ

**“ИЛМ-ФАН, ТАЪЛИМ ВА САНЪАТ ИНТЕГРАЦИЯСИ:
ИСТИҚБОЛЛИ РЕЖАЛАР”**

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**“INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND ARTS:
PERSPECTIVE PLANS”**

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONFERENCE

ISBN 978-9965-782-91-6



9 789965 782916

O'QITUVCHI-OSHIQ LISONIY SHAXSINING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada badiiy matnda oshiq-o'qituvchi lisoniy shaxsining voqelanish haqida so'z yuriladi. O'qituvchi ijtimoiy mavqeyidagi shaxsning oshiq timsolidagi o'ziga xos jihatlarining badiiy matnda aks ettirilishiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: lingvopersonologiya, lisoniy shaxs, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, sotsiopragmatik aspekt

Аннотация Мақалада ғашық-ўстаздың тілдік тұлғасының көркем мәтінде жүзеге асуы туралы айтылады. Көркем мәтіндегі ғашық бейнесінде ұстаздың әлеуметтік жағдайындағы тұлғаның қайталанбас қырларын көрсетуге назар аударылады.

Түйінді сөздер: лингвоперсонология, тілдік тұлға, әлеуметтік мәртебе, әлеуметтік рөл, социопрагматикалық аспект

Annotation. The article talks about the realization of the linguistic personality of the lover-teacher in the artistic text. Attention is focused on the reflection of the unique aspects of a person in the social position of a teacher in the form of a lover in an artistic text.

Keywords: linguopersonology, linguistic personality, social status, social role, sociopragmatic aspect

Tilga lingvopersonologik nuqtayi nazardan yondashuv til egalarining kasbiy nutqiy faoliyati ham ularning nutqida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ayni paytda o'qituvchilar nutqi adliya-huquq xodimlari nutqidan, shifokorlar nutqi esa savdo xodimlari nutqidan, chorvadorlar nutqi tikuvchilar nutqidan nafaqat leksik-grammatik nuqtayi nazardan, balki leksik-semantik, psixologik, lingvokulturologik va boshqa jihatlar bilan farqlanadi. Chunki ijtimoiy markerlar har bir sohada o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'lib, kasbiy xarakterni shakllantiradi va o'z navbatida shu soha vakillarining individual mulohaza xulqiga ta'sir qiladi. Ya'ni ularning etikasida, nutqida, o'zini tutishida verbal va nonverbal vositalardagi kasbga xos ko'rinishlarni vujudga keltiradi.

Lisoniy shaxs tushunchasi lingvokulturologik tip tushunchasi bilan ham uzviy bog'liq. Lingvomadaniy tip - bu ma'lum bir madaniyat vakillarining taniqli qiyofasi bo'lib, ularning yig'indisi ma'lum bir jamiyat madaniyatini tashkil qiladi [Карасик, 2009: 180-181]. Bu tushuncha ikki tomonlama ahamiyatli bo'lib, bir tomondan lingvomadaniy jihatdan konseptni ifodalasa, ikkinchi tomondan lisoniy shaxsni ifodalaydi. N.S. Kasyuk rus tilidagi xalq og'zaki hajviyalaridagi o'qituvchi obrazini tadqiq qilgan [Касюк Н.С]. Tadqiqotchi ushbu maqolasida rus tilidagi o'qituvchi lisoniy shaxsini dars beradigan predmetiga qarab (ximiya, biologiya, ashula, boslang'ich sinf), keng tarqalgan ismi-familiyasiga qarab (bunda ko'pincha ramziy

nomlar uchraydi), jinsi, yoshi, ma'lumotiga qarab turlarga ajratadi va ularga xos bo'lgan xususiyatlarga to'xtalib o'tadi [Касюк Н.С].

O'zbek tilida o'qituvchi lisoniy shaxsi rus tilidagidek o'ziga xos lingvomadaniy tip darajasiga ko'tarilgan emas. O'zbek adabiyoti namunalarini kuzatsak, o'qituvchi lisoniy shaxsi yaqqol ko'zga tashlanadigan obraz sifatida namoyon bo'lmaydi. Ijodkorlar odatda o'qituvchi lisoniy shaxsini shakllantirishda leksik birliklar, ya'ni u mansub bo'lgan soha terminlaridan foydalanadilar. Biz Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romani qahramoni Samandar obrazi orqali uning ham o'qituvchi, ham oshiq ijtimoiy rolidagi lisoniy shaxsining voqelanishini tahlilga tortmoqchimiz.

Asar qahramoni Samandar oliy ta'lim muassasida adabiyotdan dars beradi. Uning adabiyot olamiga mansubligi har bir so'zidan, har bir xatti-harakatidan sezilib turadi. Lisoniy shaxs sifatida shakllanishida uning tildan foydala olish imkoniyati boshqalarnikidan ko'pligi yozuvchiga qo'l kelgan deyish mumkin. Yozuvchi qahramonini majnunvash oshiq sifatida shakllantiradi. Qahramonning ismi ham sotsiopragmatik belgiga ega, ya'ni mumtoz adabiyotimizdagi o'tda yonmas qush nomiga ishora bor. Samandardagi qat'iyat, mehnatkashlik, onasi va uka-singilisiga bo'lgan mehrini tasvirlash orqali yozuvchi yosh Samandar lisoniy shaxsini shakllantirsa, Aziza, undan keyin Saboga bo'lgan muhabbati orqali oshiq yigit shaxsini shakllantiradi.

Asarning boshidanoq yozuvchi Samandarning muhabbat haqida o'z qarashlariga ega ekanligini kitobxonga bildiradi. Buni uning sinfdoshi Aziza bilan paxta dalasida qilgan suhbatidan bilib olishimiz mumkin:

– *Seningcha, sevgini ham boshqarsa bo'larkan-da o'zicha mushohada qila boshladi Samandar. – Men negadir boshqacha o'ylarkanman.*

– *Qanaqa? – qiziqishini yashirib o'tirmadi Aziza.*

– *Aniq aytolmayman, lekin chinakam odam devonaga o'xshab qolsa kerak deyman. Layli-Majnun esla: ular sevgi yo'lida na zeb-ziynat, na mansab-mavqeni o'ylashdi, kelajaklarini cho'tga solib ko'rishmadi. Chunki ular yuraklarini emas, yuraklari ularni boshqarar edi...* ["Sabo va Samandar", 15]. Keltirilgan matnda Samandar maktab o'quvchisi, uning ijtimoiy maqomi bahsga kirishayotgan Aziza bilan teng. Odatda, ijtimoiy maqomi jihatidan teng bo'lgan suhbatdoshlar fikrini erkin, tortinmasdan aytadilar. Bu o'rinda yozuvchi Samandardagi yosh yigitlarga xos bo'lgan qat'iyat, o'z qarashiga ega ekanligini gavdalandirgan. "Shaxs ijtimoiy mavqeyini farqlash uning kommunikativ faoliyatini o'rganish uchun muhimdir. Ijtimoiy status va rollardagi farqlar, albatta, muloqot birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlarida "iz" qoldiradi"[Сафаров III, 2008:157]. Badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishi uning ijtimoiy maqomi va roli bilan bog'liq holda yuz beradi.

Yozuvchi qahramonining xatti-harakatlari, gap-so'zlari vositasida uning boshqalarga o'xshasligini tasvirlaydi. Uni bolaligidan to'ulg'ayguncha bo'lgan davridagi voqealar rivojini kuzatsak, yozuvchi uning o'ziga xos dunyoqarash, olamga o'zgacha nigoh bilan qaraydigan, o'z qarashlaridan kechmaydigan lisoniy shaxs sifatida shakllanishining asoslarini ko'rishimiz mumkin, ijtimoiy shaxs sifatidagi maqomi har bir o'rinda sezilib turadi. Samandarning Sherdil bilan muhabbat haqidagi tortishuvlari ifodasi qat'iyatli, haqiqiy oshiq timsoli ekanligiga kitobxonni ishontira oladi.

Olamga boqsam, senga qo'shilib nurlanib ketaman – olam ham o'sha nurga chulg'anadi. Shu nur bilan qilayotgan ishimga, yashayotgan kunimga tahrir kiritmoqchiman: "Muhabbat darsi"ni o'tmoqchiman. Ha, ha, aynan o'shani – "Muhabbat darsi"ni! Shu topda ko'zimga boshqa narsa ilashmayapti ["Sabo va Samandar", 11]. Keltirilgan ushbu mikromatnda yozuvchi qahramonining o'y-xayollari vositasida muhabbat konseptini ifodalagan. Bu o'rinda Samandar oshiq bo'lishi bilan birga o'qituvchi ijtimoiy rolda. Tabiiyki, o'zbek millatiga xos bo'lgan andisha, hayo kabi xususiyatlar oshiq yigitning tuyg'ularini ochiq-oydin ifodalash imkonini bermaydi. Bu o'rinda oshiq-o'qituvchi lisoniy shaxsini voqelantirishida uning tuyg'ularini yozuvchi oy-xayollar vositasida berish imkonidan foydalanadi. *Yashayotgan kunimga tahrir kiritmoqchiman, "Muhabbat darsi"ni o'tmoqchiman* kabi gaplar vositasida adabiyotchiga xos lisoniy birliklar qo'llanilgan. *Tahrir qilmoq* o'rnida *tuzatmoqchiman* fe'li qo'llanilganda adabiyotga oshno oshiq yigit lisoniy shaxsi to'la-to'kis shakllanmas edi. Samandar obrazi orqali yozuvchi asarning boshidan oxirigacha chinakam oshiq lisoniy shaxshini shakllantira olgan. Uning nuqida qo'llanilgan leksik birliklar ohorliligi, boshqalar nutqida qo'llanilmaganligi, so'z qo'llash va gap qurilishidagi o'ziga xosliklar uning alohida lisoniy shaxs sifatida shakllanishida muhum vosita bo'lib xizmat qilgan. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin: *"Hech bosilmayapti, ichim yonib ketyapti"*, *"Bir umr seni aldab keldim, aldab kelyapman, Soliha! Axir, mening dilim boshqa ayolga talpinadi, uni deydi, uni sog'inadi!"*. Bu o'rinda *ichim yonib ketyapti* gapi qahramonning ruhiy holatini ifodalasa, *mening dilim boshqa ayolga talpinadi* gapi uning erkak jinsiga mansubligiga ishora qiladi. Bu o'rinda Samandar Solihaga nisbatan er ijtimoiy maqomida. Tabiiyki, ko'ngli boshqa ayolda bo'lgan shaxs ayoli oldida o'zini aybdor sanaydi, yuragi yonadi, iztirob chekadi, ammo erkaklik g'ururi buni tilga chiqarishga yo'l bermaydi. Badiiy matnda qahramonning ruhiy holatini ifodalashda ichki nutqdan foydalaniladi. Badiiy matnda muayyan lisoniy shaxs avvalo sotsial tip sanaladi, uning haqqoniy chiqishida esa yozuvchining mahorati, kuzatuvchanligi, tildan foydalana olish imkoniyati ahamiyatlidir.

"Sabo va Samandar" romanining qahramoni Samandar talabasiga ko'ngil qo'ygan, ishq o'tida yonayotgan oshiq timsolida gavdalanadi. Adabiyotdan yakuniy imtihonda javob berayotgan talabalar oldida qattiqqo'l o'qituvchi sifatida gavdalansa, amaliy mashg'ulotlarda "diktator o'qituvchi" emas, emin-erkin suhbatdosh sifatida, Saboning oldida esa o'zini yo'qotib qo'ygan, so'zga no'noq lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Samandar nutqida qo'llangan *"bugungi mavzuni o'zingiz tanlang"*, *"rejasiz ish bo'lmaydi"*, *"maslagimiz adabiyot-u inga tegishli ilm bo'lgandan"*, *"muhabbat – adabiyotning eng ko'hna va o'tli mavzusi"* kabi gaplar uning adabiyot o'qituvchisi lisoniy shaxsi sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Mahoratli yozuvchi U.Hamdami oshiq-o'qituvchi lisoniy shaxsini boshqa qahramonlari lisoniy shaxshi kabi mohirlik bilan gavdalantirgan [Umurzakova M, 2021].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, lisoniy shaxsning badiiy matnda voqelanishida uning qanday ijtimoiy maqomda ekanligini inobatga olish muhim hisoblanadi. Bir obraz bir paytning o'zida bir necha ijtimoiy rolda bo'ladi, yozuvchining mahorati esa uning har bir roliga mos lisoniy birliklardan o'z o'rnida foydalana olishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Касюк Н.С. Паспорт лингвокультурного типажа «учитель» (на материале анекдотов) – Минск: РИВШ, 2010. – С.103-107
2. Карасик В.И. Языковые ключи. – М., 2009.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
4. Umurzakova M.E. [Types of linguistic personality in the literary text \(on the example of Ulugbek hamdam's stories\)](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=w6qGLxUAAAAJ&citation_for_view=w6qGLxUAAAAJ:WF5omc3nYNoC)
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=w6qGLxUAAAAJ&citation_for_view=w6qGLxUAAAAJ:WF5omc3nYNoC
5. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality
https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_the_formation_of_a_linguistic_personality?tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYXVwYm91bnRlbnQ9fQ

НАВОИЙ ЛИРИКАСИДА ХАЗОН ФАСЛИ ВА ОШИҚ РУҲИАТИ УЙҒУНЛИГИ

Тожибоева Озода Тоҳировна

**Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
+998976979704 ozoda@navoiy-uni.uz**

Аннотация: Табиғат бейнесі лирикалық шығармалардағы лирикалық образдың күйін көрсетуге қызмет етеді. Бұл мақалада Әлишер Науаидың күз мезгіліне ұқсас түсіндірілетін ғазалына талдау жасалған. Ғашық күйін білдіретін денелердің мағыналары ашылады.

Түйін сөздер: ғазал, лирикалық тәжірибе, лирикалық қаһарман, табиғи заттар, символ.

Аннотация: Образ природы служит для выражения психики лирического героя в лирических произведениях. В данной статье анализируется газель Алишера Навои, которая трактуется аналогично осенней поре года. Раскрываются значения тел, выражающих состояние влюбленного.

Ключевые слова: газель, лирический опыт, лирический герой, объекты природы, символ.

Лирикада табиат унсурларининг иштироки одатда жанрларнинг табиати ва баён этилаётган тасвир мазмунига кўра қўлланиб келинади. Насрий асарларда пейзаж, экспозиция, лирик чекиниш қисмини ҳосил қиладиган табиат унсурлари назмда ўзгача вазифа бажаради. Айниқса, олам ва унинг Яратувчиси, илоҳий маърифатни англатишда табиатдаги барча ҳолатлар, ўзгаришлар мажозий маънода талқин этилади. Оламнинг дақиқ кузатувчиси Алишер Навоий ижодида табиатдаги ҳар бир ҳолат, жисм ўзининг етук бадий ифодасини топган. Шоирнинг илк лирикасини ўрганган адабиётшунос олим Ё.Исҳоқов “Навоий поэзиясида табиат тасвири оғзаки ва ёзма адабиёт аъёнлари заминида мутлақо янгича сифат босқичига кўтарилган. Пейзаж шоирнинг муҳим фалсафий, ижтимоий ва ахлоқий қарашлари, унинг гуманистик идеали инкишофи учун хизмат қилувчи актив поэтик воситалардан бирига айланган”ини таъкидлайди

36.	Обитжон КАРИМОВ Акбарали МЕҲМОНОВ	АБДУЛЛА ОРИПОВ ШЕЪРЛАРИДА ХАЛҚОНА ОҲАНГЛАР – ФОЛЬКЛОР МОТИВЛАРИ	172
37.	G‘ulom BOBOJONOV	BADIY ASARDA INSHO JUMLALAR POETIKASI	176
38.	Сайёра Тўйчиева	ҲАЗРАТ НАВОИЙНИНГ МАЪНАВИЙ - ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИ	180
39.	Гўзалхон Муҳаммаджонова	ИЖОД ВА УНИНГ БОСҚИЧЛАРИ ХУСУСИДА	183
40.	Маҳмудов Жасурбек	АБАЙ ҚҰНОНБОЕВНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЙ ХАЛҚЛАРИ МАДАНИЯТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ	186
41.	O‘rinova Nilufar	TYUTORLIK FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS JIXATLARI	191
42.	Турдибоев Тохир	КАТЕГОРИЯ ТУШУНЧАСИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	194
43.	Камилова Гулмира	МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ПАРЕМИК ЖАНРЛАР ВОСИТАСИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ ШАРОИТЛАРИ	199
44.	Абдулла Улуғов	“САБР ДАРАХТИ” КАЛИТИ	203
45.	Мухитдинова Фирюза	СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАРНИ ЎРГАНИШДА ЎЗБЕК ВА ҚОЗОҚ ТИЛИНИНГ ЎЗARO ҲАМКОРЛИГИ ВА АҲАМИЯТИ	209
46.	Xolmuradova Jamila	O‘QUV LUGATLARI TALQINI VA TAVSIFI	212
47.	Mavlonova Klaraxon	ONA TILI TA’LIMIDA MATN TUZILISHINI O‘RGATISHGA OID YONDASHUV VA PRINSIPLAR	219
48.	Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna	‘QITUVCHI-OSHIQ LISONIY SHAXSINING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	224
49.	Тожибоева Озода	НАВОИЙ ЛИРИКАСИДА ХАЗОН ФАСЛИ ВА ОШИҚ РУҲИЯТИ УЙҒУНЛИГИ	227
50.	Atayev Azamat	O‘ZBEK TILIGA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN TARIXAN QO‘SHMA SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI	232
51.	Гўзалхон Муҳаммаджонова	ҲОЗИРГИ ЎЗБЕК ҲИКОЯЧИЛИГИДА БАДИИЙ ДЕТАЛЬНИНГ ЎРНИ (Зулфия Қуролбой қизи ва Абдуқаюм Йўлдошев ҳикоялари мисолида)	235
52.	Tajibayeva Latofat	YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA POETIK SHAKL EVRILISHINING TAKOMIL BOSQICHLARI	239
53.	Мўминжон Сулаймонов	ҲОФИЗ ХОРАЗМИЙ ИЖОДИДА ҲОФИЗ ШЕРОЗИЙ АНЪАНАЛАРИ ТАЛҚИНИ	242
54.	Orimbetova Laura	O‘QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	245
55.	Қалыбеков Болат Айдарбекова Алия Касимова Хамила	МАҒЖАН ЖҰМАБАЕВ ӨЛЕҢДЕРІНДЕГІ СЫРШЫЛ СӨЗ ҚОЛДАНЫСТАР	249